

**YOSHLAR O'RTASIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI****¹Ismatova Feruza Abduvahobovna****²Yo'ldosheva Nozik Mirzoyevna**

1,2O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6542007>

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda, biz yashayotgan global, zamonaviy va virtual dunyo barchamizning ongimizga o'z qarashlari va tushunchalari bilan kirib kelib ulgurdi desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: global, virtual, texnika, fan, ta'lif, internet, texnologiya.

"Butun kuch va salohiyatimizni yagona ulug' maqsadimiz - yangi

O'zbekistonni barpo etishga qaratamiz"

O'zbekiston respublikasi prezidenti: **Shavkat Mirziyoyev Miromonovich**

Hozirgi kunda, biz yashayotgan global, zamonaviy va virtual dunyo barchamizning ongimizga o'z qarashlari va tushunchalari bilan kirib kelib ulgurdi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. O'sib ulg'ayyotgan har bir yosh avlod zamonaviy fan - texnika olami hamda shuningdek uning ham zararli, ham foydali taraflarini birday chambarchas holda o'z tafakkurlarida shakllantirib kelishmoqda. Hozirda butun dunyo bo'ylab insonlarning 90% lari internetsiz hayotlarini tasavvur qilaolishmaydi. Shu bilan bir qatorda internet, ijtimoiy tarmoqlar insonlar uchun ko'plab foydali taraflariga ega bo'lishiga qaramsdan, o'zining radikal taraflariga ham egadir. Hozirgi kunda 21 dan 35 yoshgacha bo'lgan insonlar internet hamda virtual tarmoqlardan foydalanishni deyarli kun tartibiga aylantirib ulgurishganligi barchamiz ayondir. Buning asosiy sabablaridan biri internetning imkoniyatlarining kengligidadir va shu sababli internet ya'ni "Xalqaro o'rgimchak to'ri" nafaqat kattalarning balki o'sib ulg'ayayotgan vatanimizning kelajagi hisoblangan yoshlarning ham ongiga o'z ta'sirini yetkazmay qo'ymaydi. Shu sababli, ularning tafakkurida negativ qarashlarni uyg'otish yomon fikrli insonlar uchun qiyinchilik tug'dirmayabdi. Bu esa bir so'z bilan aytganda HALOKAT dir. Diniy ekstimistik hamda teroristik guruhlar bu



imkoniyatdan unumli foydalanib bizning ya'ni yurtimizning nafaqat vatanimizning balki butun dunyo ahlining kelajagini yo'qqa chiqarmoqchiligi barchamizga ko'rinish turgan hodisadir.

Hozirgi globallashuv asrida internetsiz hayotni tasavvur etish mushkul, ammo ijtimoiy tarmoqlardan to'g'ri yo'llarda foydalanish zarur. Ya'ni inson o'z o'zini boshqara olishi kerak. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Axborot xurujining oldini olish uchun mafkuraga qarshi mafkura, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashmog'imiz kerak". Zero, yoshlarimiz qalbida ma'naviy-axloqiy pok jihatlar ezgu-maqsadlar yo'lida xizmat qilsin. Axborot xurujlarining oldini olish uchun, avvalo, yoshlarimizning mustaqil fikrlashini shakllantirish talab etiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab farzandlarimizga turli uslublarda "Ommaviy madaniyat"ning salbiy oqibatlari keltirayotgan zararlar haqida tushunchalar berib borish maqsadga muvofiqdir. Buning isboti sifatida muhtaram Prezidentimizning " Yangi O'zbekiston - maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi" degan so'zlaridan anglashimiz ham mumkin. O'quvchilarni buzg'unchi g'oyalari ta'siriga tushishdan saqlash, turli «Axborot xurujlari»ga qarshi immunitet hosil qilish, ularning psixologik sog'lomligini ta'minlashda mazkur tizim muhim rol o'ynaydi. Bundan ko'rinish turadiki, biz yosh avlodning qo'liga mobil qurilmalar (telifon, kompyuter) berib ularning ongida ijtimoiy radikal fikrlarni emas balki qo'llariga kitob berib ezgu niyat hamda qadriyatlarni shakllantirishimiz zarur. "Yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir" deyilgan gap bekorga aytilmagan. Chunki hozir yoshlarga nimani bersangiz, ulg'aygach u ham sizga huddi usha narsani taqdim etadi. Bu muammoning kelib chiqishi 1996-yildan boshlab o'rganilib kelinmoqda va "Internetga bog'lanib qolmoq - ijtimoiy va professional faoliyat pasayishi" deb tushuntirildi. Albatta, yoshlar orasida buni kasallik deb atash uchun klinik asoratlar yoq. Eng achinarlisi, bu yo'naliishda ustida deyarli hech qanday amaliy rejalar ko'rib chiqilmayapti. Zero, global tarmoq yoshlar onginiga ta'sir etish uchun eng kuchli manbaa hisoblanadi. Ularni tortadigan narsa bu Illuziya, o'zi xohlagan dunyoda yashash, real hayotdan biroz bo'lsada chekishdir. "Internet bu yomon, undan foydalanmang" deyaversak buning aksi, yani qilma deb aytgan nasihatni qilib ko'rish harakatida bo'ladi.

Prezidentimiz takidlaganlaridek "Inson - jamiyat - davlat" shiori ostigi davlatni shakllantirish ham bu bizning ertangi kunimizni porloq qilishimiz kerakligidan darak beradi. Ongli ravishda tahlil qilsak bir inson internetdan noto'g'ri yo'lida foydalanib uni talqin etsa dunyo kamida shunga



o'xshagan yana yuzlab balki minglab odamlardan ajralib qolishi ehtimoldan holi emas. Nega faqatgina O'zbekiston emas "Dunyo" deyabman? Chunki bu shunchaki yurtimizning emas, balki butun jahon insoniyatining muammosidir. Shunday ekan, dunyoning turli mintaqa va hududlarida ro'y beryotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ziddiyatli to'qnashuvlarga teran qarash hissini oshirish, har qanday ko'rinishdagi tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish, ayniqsa bu borada kelajagimiz hisoblangan yosh avlodni, bir so'z bilan aytganda har birimiz uchun muqaddas bo'lgan oilamizni din niqobi ostidagi yot g'oyalar ta'siridan asrash uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz lozim.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish zarur, ammo salbiy oqibatlarni ham hisobga olgan holda, doimiy nazorat va tushuntirish ishlarining ularning ongiga singdirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Axborotlar oqimidan foydalanish bo'yicha yoshlarda sog'lom immunitetni hosil qilish, ijobiy tomonlarini o'rgatish bilan birga, salbiy oqibatlarini ham aytib o'tish kerak. Kelajagimiz, yurtimiz kelajagi, dunyo kelajagini saqlab qolish o'z qo'limizdadir. Buning uchun shunchaki bor kuchimiz bilan harakat qilsak bo'lgani.

Foydalinilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev - Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. Tasvir nashriyoti 2021.
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <http://uz.infocom.uz>
4. <https://xs.uz/uz/post/yangi-ozbekistonni-yoshlar-bilan-birga-quramiz>